



OILA, MAHALLA VA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTINING O'ZARO HAMKORLIGIDAGI MILLIY TARBIYA MAZMUNI

Abdurashidov Adxamjon

Qo`qon davlat universiteti

Maktabgacha tarbiya kafedrası v.b. professori

adxamabdurashidov@gmail.com

Annotatsiya: mazkur maqolada mamlakatimizda oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyat sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettirilgan, shuningdek, milliy tarbiya mazmuni, oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligidagi milliy tarbiya texnologiyalariga oid nazariy ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, o'zaro hamkorlik, milliy tarbiya, texnologiya

Аннотация: в данной статье представлена информация о том, что в нашей стране взаимопомощь семьи, соседства и дошкольного образования стала общенациональной ценностью, оказывающей большое влияние на воспитание личности, а также теоретическая информация о содержании национального воспитания и технологиях национального воспитания в контексте взаимопомощи семьи, соседства и дошкольного образования.

Ключевые слова: семья, соседство, дошкольное образование, взаимопомощь, национальное воспитание, технологии

Abstract: This article presents information on how mutual assistance between family, neighborhood, and preschool education has become a national value in our country, exerting a significant influence on individual development. It also provides theoretical information on the content of national education and the technologies of national education in the context of mutual assistance between family, neighborhood, and preschool education.

Key words: family, neighborhood, preschool education, mutual assistance, national education, technologies

Mamlakatimizda oila, mahalla va maktabgacha ta'lim tashkilotining o'zaro hamkorligi shaxs tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatuvchi milliy qadriyat sifatida davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi quyidagicha aks etmoqda:

- Birinchidan, ijtimoiy institutlarga har tomonlama e'tibor qaratilayotganligi;
- Ikkinchi tomondan mustaqillik bergan imkoniyat tufayli qo'lga kiritilgan milliy qadriyatlarning qayta tiklanayotganligidir. Har ikki e'tiborning asosiy maqsadi bitta yosh avlodni tarbiyalashdek buyuk ish. Prezidentimiz ham ta'lim-tarbiya sohasiga alohida

e’tiborlarini qaratib pedagoglardan o’z faoliyatiga jiddiy yondashishlarini talab etmoqda. Davlatimiz rahbari mahalla maktab va oilaning o’rnini yoshlar bilan ishlash negizida bir qator qarorlari asosida fikrlari yuritilgan. Xususan, “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” Kontsepsiyasi yoshlarni istiqloq g’oyalariga sadoqatli, ma’naviy barkamol, vatanparvar qilib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida dasturulamal bo’lmoqda. “Oila, mahalla, ta’lim muassasasi hamkorligi” Kontsepsiyasining asosiy maqsadi yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o’zbek xalqining boy milliy, madaniy, tarixiy an’analari, urf-odatlar va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiya ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta’minlash, ota-onalar, pedagoglar va mahalla faollarining umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish va tarbiya ishlarini takomillashtirishdan iboratdir. Kontsepsiyada jamiyat taraqqiyotining ma’naviy-axloqiy negizi bo’lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlar va tarbiyaning o’zaro aloqasining muhim yo’nalishlari belgilab olingan. Zero, mahalla, oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligida milliy tarbiya yo’nalishda bolalarni o’zligini anglashi, vatanparvarlik, milliy g’urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy onglilik, milliy odob, fidoyilik kabi fazilatlarini o’zlashtira olishlari zarurligi ko’rsatilgan bo’lsa, umuminsoniy yo’nalishda hamkorlikdagi pedagogik faoliyatning huquq, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, gigienik va boshqa tarbiya sohalarini qamrab olinishiga e’tibor qaratilgan.

Mamlakat islohatlaridan kelib chiqib, tarbiya jarayoni ishtirokchilari bo’lmish yosh avlodni milliy tarbiya asoslari bilan tarbiyalash dolzarb vazifa bo’lib qolmoqda.

“Milliy tarbiya” tushunchasi ko’p qirrali tushuncha bo’lib, quyidagicha ta’riflash mumkin:

- Milliy tarbiya milliy qadriyatlar asosida olib boriluvchi maqsadga yo’naltirilgan tarbiyaviy faoliyatdir;
- Milliy tarbiya umuminsoniy tarbiyaning har bir xalqqa xos va mos betakror shakli;
- Milliy tarbiya xalq va uning madaniyatini saqlab qolish, tiklash va rivojlantirish vositasi;
- Milliy tarbiya bolalarni har tomonlama rivojlantirish jarayonining ma’naviy manbai;
- Milliy tarbiya bolalarni axloqiy, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, go’zallik, iqtisodiy, ekologik va boshqa yo’nalishlarda tarbiyalashning bosh tamoyili;
- Milliy tarbiya ijtimoiy ta’lim va tarbiya uyg’unligining pedagogik sharti va b.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida milliy tarbiya tizimi-o’zbek xalqining o’ziga xos milliy madaniy fe’l-atvori, axloq qoidalariga va milliy nustaqilikni mustahkamlashning tarbiyaviy talablariga asoslanuvchi, hech kimdan kam bo’lmagan barkamol avlodni shakllantirishning pedagogik jarayonidir. Milliy tarbiya – azal-azaldan xalqimiz turmushida bardavom etib kelayotgan jarayondir. To’g’ri sobiq ittifoq davrida biroz taqiqlangan bo’lsada, lekin sinmadi, bugungi kunda yana o’z qaddini tik tutib oldi. Chunki xalqimiz har qanday sinovlarga chidadi va o’zligini yo’qtmadi, o’z tarixini saqlab qolishga urindi. Zero, o’zbekchilikka asoslangan milliy tarbiya tarixi o’zbek xalqining tarixi asosida rivojlangan.

Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida milliy tarbiyaning quyidagi ko`rinishlarda:


- milliy tarbiya milliy qadriyatlar;
- urf-odatlar;
- xalq og`zaki ijodi;
- ma`naviy-axloqiy fazilatlar va jismoniy tarbiya musobaqalari orqali amalga oshiriladi.

Oila bilan taqqoslanganda ham shu ko`rinishlar saqlanib qoladi. Mahalla bilan taqqoslanganda ham shu jarayonlar saqlanib qoladi, faqat tarbiyachilar, bolalar o`zgarishadi. Chunki bitta maktabgacha ta`lim tashkilotiga turli oila va mahallalardan keluvchi bolalar bo`ladi.

Milliy tarbiya biz uchun yosh avlodda vatanparvarlik, mehnatsevarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, axloqan pok, jismonan sog`lom, ruhan tetik va milliy o`zlikni anglash tuyg`ularini shakllantirishga xizmat qiladigan jarayon bo`lib, uni oila, mahalla, maktabgacha ta`lim tashkilotlarini hamkorlikda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir.

Oila, mahalla va maktabgacha ta`lim tashkilotining o`zaro hamkorligidagi milliy tarbiya texnologiyalarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- milliy tarbiya maqsadi
- milliy tarbiya vazifasi
- milliy tarbiya mazmuni
- milliy tarbiya metodlari
- milliy tarbiya vositalari
- milliy tarbiya ishtirokchilari
- milliy tarbiya natijasi



Tasvirlangan chizmada ko`rinib turgandek, milliy tarbiya texnologiyasi ketma-ket bir-biri bilan bog`langan zanjir xolatga ega jarayondir. Bu zanjirni bir bo`lagi uzilib yoki bajarilmay qolsa texnologik jarayon to`xtaydi va natijaga erishilmaydi. Shuning uchun maktabgacha ta`limda tarbiyachi, oilada ota-ona, mahallada kattalar tomonidan puxta o`ylangan ishlarni amalga oshirilishi talab etadi. Bu texnologik jarayonni amalga oshirilishida Milliy tarbiyaning asosiy ko`rinishlarini quyidagicha tavsiflash mumkin:

- Ertaklar, maqollar, topishmoqlar, allalar va milliy o`yinlar, ya`ni xalq og`zaki ijodi va an`analar orqali bolalar ongiga milliy qadriyatlarni singdirish;
- Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehr-oqibat, halollik kabi axloqiy fazilatlarini o`rgatish orqali ma`naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish;
- Navro`z, Mustaqillik kuni kabi milliy bayramlarni nishonlash, milliy liboslar va sahna ko`rinishlarini namoyish etish orqali milliy madaniyatni shakllantirish;
- "Oq terakmi, ko`k terak", "Chillak", "Arqon tortish" kabi xalq milliy o`yinlari orqali jismoniy va milliy tarbiya berish;
- Milliy kashtachilik, kulolchilik kabi xalq amaliy san`at va hunarmandchilik namunalari bilan tanishtirish orqali estetik tarbiya berish.

Milliy tarbiyaning asosiy ko`rinishlarini to`g`ri va bir maqsadda amalga oshirilishi natijasida bolalarning ma`naviy dunyosi boyitiladi, ruhan tetiklashtiriladi, jismonan

sogʻlomlashtiriladi. Bu jarayonda oila alohida oʻringa ega, chunki bola oilada dunyoga keladi, koʻz ochib oʻz yaqinlarini koʻradi, dastlabki tili ham oilada chiqadi, alla, ertaklarni ham onasidan eshitadi, shuning uchun ham bola dastlabki milliy tarbiyani oiladan ola boshlaydi. Zero, oilada amal qilinadigan urf-odatlar, oila anʼanalari, tashkil etilgan har bir marosimlar, eʼzozlanib kelinayotgan oila qadriyatlari, hatto bolalarni eshitayotgan qoʻshiq, alla, ertaklari, oʻynayotgan milliy xalq oʻyinlari hamma hammasi bolalarni milliy ruhda tarbiyalashning asosiy vositalari hisoblanadi. Oilaning eng asosiy xususiyatlaridan biri-oila aʼzolarining oʻzaro mehr-oqibatli muhitni yaratishlaridir. Bobobuvilarning pand-nasihatlarini, ota-onalarning oʻrnagi ham milliy qadriyatlar hisoblanib, bolalar hulqida axloqiy meʼyorlarni tarkib toptirishda asosiy vazifani bajaradi.

Mahalla– xalqimizning uzoq va shonli tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayoti, madaniy merosi aks etgan maskan boʻlib, oʻziga xos nom va tariga ega. Mahalla xalqni bagʻrikenglik, xalqparvarlik rihida tarbiyalab, insonni jamiyatning bir qismi boʻlishga chaqiradi va xalqni mamlakat bilan oʻzaro aloqasini bogʻlashga xizmat qiladi. Har bir mahalla oʻz xudud yoshlariga milliy tarbiyani singdirish ishlarida oila, taʼlim muassasalari va jamoatchilik hamkorligini toʻgʻri yoʻlga qoyish maqsadini belgilaydi. Bu maqsad orqali mahalla yoshlarda milliy gʻurur, kattalarga hurmat, hamjihatlik va milliy mafkuraviy onglikni shakllantiradi va yoshlarni milliy qadriyatlar, vatanparvarlik va yuksak axloq ruhida tarbiyalashni oʻz vazifasi deb belgilaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilada ham, mahallada ham maktabgacha taʼlimda ham milliy tarbiya mazmuni bolalarni:

- milliy odob-axloq qoidalarini, kattalarga hurmat, kichiklarga izzatni ota-onaning, tarbiyachi va kattalarning oʻz xulq-atvori orqali koʻrsatilishida;

- milliy bayramlar, toʻylar, hasharlar, maʼrakalar, mehmondoʻstlik va milliy taomlar tayyorlash kabi tadbirlarda bolalarni faol ishtirok ettirishlarini taʼminlash orqali milliy oʻzlikni va urf-odatlarini anglatilishida;

- sof oʻzbek tilida muloqot qilish, ertak, doston, maqol va matallar orqali xalq donoligini oʻrgatilishida;

- bobo va buvilarning, keksa pedagoglarning, nuroniy qariyalar va oqsoqollar hayotiy tajribasi, oʻgʻitlari va milliy qadriyatlarni avloddan-avlodga oʻtkazishdagi oʻrni, yaʼni uch avlod tarbiyasini singdirilishi natijasida mehr-oqibat, maslahatlarga quloq solish tuygʻusini rivojlantirilishida;

- mehnatsevarlik, halollik, andisha, sharm-hayo kabi fazilatlarni kundalik hayotida shakllantirilishida;

- milliy anʼanalarni zamonaviy dunyoqarash bilan bogʻliq holda oʻzlikni anglash, milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishida;

- tinchlik va totuvlikni saqlash, yoshlarni yot gʻoyalardan asrash va madaniy muloqotni shakllantirilishida;

- milliy tarbiyani mahalladagi jamoatchilik nazorati va faollari orqali oila va taʼlim tashkilotlari bilan uygʻunlikda olib borilishida aks etadi. Zero, bu uygʻunlikni "besh tashabbus" doirasidagi milliy adabiyot va sanʼat vositasida oʻtkazilishi ham bolalarni kelajakda har tomonlama yetuk insonlar boʻlib voyaga yetishishlarida muhim rol oʻynaydi.

Milliy tarbiya O`zbekiston uchun ham strategik, ham siyosiy zarurat sifatida “Ta`lim to`g`risida” (2020)gi Qonunda “Ta`lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi” tamoyili sifatida belgilab qo`yilgan. Bu tamoyil ta`lim va tarbiyani xalqning milliy tarixi, xalq an`analari, urf-odatlari, madaniyati bilan uzviy uyg`unlikni ta`minlaydi

Adabiyotlar ro`yxati

1. O`zbekiston Respublikasining “Ta`lim to`g`risida”gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi O`RQ-637-son

2. M.Quronov. Milliy tarbiya. Toshkent “Ma`naviyat” -2007

3. Musurmanova O. Oila jamiyat tayanchi: Monografiya /O.Musurmanova. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 252.

4. Fazilatli avlod. Uzluksiz ma`naviy tarbiya trilogiyasi. 3-qism. [Matn]: 7-18 yoshli bolalarni ma`naviy tarbiyalash bo`yicha qo`llanma. /Tuzuvchi mualliflar: A.Qodirov, M.Quronov, O.Musurmanova va boshqalar. – Toshkent: “Muharrir” nashriyoti. 2019. – B. 256. (2020 yil, yanvar)

5. Ismoilova Z.Q. Ma`naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy va eksperimental-metodik asoslari (Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar). – Ped. fan. dok. ...dis. avtoref. – Toshkent: O`zPFITI, 2006. – B. 46.